

Xizmat ko'rsatish sohasini rivojlanishi – postindustrial jamiyat iqtisodiyotining harakatlantiruvchi kuchidir

Dunyo miqyosida iqtisodiy rivojlanishning eng muhim qonuniyatlaridan biri-milliy iqtisodiy o'sishning o'zaro bog'liqligi va iqtisodiyotda xizmatlarning tobora ortib borayotgan roli hisoblanib, bu xizmatlar sohasida foydalaniladigan mehnat, moddiy va moliyaviy resurslar ulushining ortishi bilan izohlanadi.

Jamiyatning rivojlanishi hamda ishlab chiqarish kuchlarining o'sishi bilan mazkur sohaning muayyan rivojlanishi yuz beradi. Sohada bandlikning oshishi, mehnatni texnik jihozlanishining o'sishi, takomillashgan texnologiyalarning joriy etilishi kuzatilmoqda.


Hozirgi kunda iqtisodiyotning muhim tarmoqlaridan biri bo'lgan xizmatlar sohasining ro'li juda katta va dolzarbdir. Bu xususan ishlab chiqarishning murakkablashayotganligi, bozorni kunlik va shaxsiy talabdan kelib chiqqan holda tovarlar bilan to'dirlayotganligi, jamiyat hayotini yangilovchi ilmiy-texnologik taraqqiyotning jadal o'sishi bilan bog'liqdir.

Bularning barchasini axborot, moliyaviy, transport, sug'urta va boshqa xizmat turlarisiz amalga oshirib bo'lmaydi. Bundan tashqari, xizmatlar tovarlar savdosining tarkibiy qismi hisoblanadi (ayniqsa texnik jihatdan murakkab), chunki tovarlarni sotish asosan sotish vaqtida ko'rsatilayotgan xizmatlardan va sotishdan so'ng ko'rsatiladigan xizmatlardan iborat tobora rivojlanib borayotgan tarmoqni talab qiladi.

Shak-shubxasiz yangi korxona va tashkilotlarni tashkil etish, shuningdek, faoliyat yuritayotgan korxona va tashkilotlar tomonidan innovatsion texnologiyalardan foydalanish va ko'rsatilayotgan xizmatlar ro'yxatini kengaytirish kelgusida ish o'rinalarini ko'paytirish va aholi farovonligini oshirishga yordam beradi.

2019-yil 1-dekabr holatiga Toshkent shahrida jami faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni 83,1 mingtaga yetdi. Xizmatlar ko'rsatish sohasida 60,7 ming birlik faol bo'lib ularning o'sishi 27,0 % ga ko'paydi.

**2019-yil 1-dekabr holatiga faoliyat
ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning tarkibi, %
(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)**



2019-yil 1-dekabr holatiga, xizmatlar ko'rsatish sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar tarkibida savdo xizmatlari bilan shug'ullanuvchi korxonalar va tashkilotlar (33,9 %) yuqori ulushni egallaydi.


Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarni ko'rsatuvchi faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlarning soni 9,8 % ni tashkil etdi.

Tashish va saqlash faoliyati bilan shug'ullanuvchi xizmatlar sohasiga tegishli faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlarning ulushi umumiy sonida 5,5 % ga yetdi.

Axborot faoliyati bilan shug'ullanuvchi va aloqa xizmatlarini ko'rsatuvchi faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlarning ulushi 5,2 % ga teng bo'ldi.

Sog'liqni saqlash hamda ijtimoiy xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlarning ulushi 2,5 % ni tashkil etdi.

**2019-yil 1-dekabr holatiga xizmatlar ko'rsatish sohasida faoliyat
ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning iqtisodiy
faoliyat turlari bo'yicha tuzilmasi, %
(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)**



Kichik tadbirkorlik sub'ektlari mamlakatda xizmatlarlar ko'rsatish sohasini rivojlantirishga salmoqli hissa qo'shmoqda. va shu sababli, tadbirkorlik sub'ektlarni davlat tomonidan yanada qo'llab-quvvatlash va rag'batlantirish zarur.

Kichik tadbirkorlik sub'ektlariga tegishli faoliyat ko'rsatayotgan korxonalarning o'sishi xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar umumiyl sonining o'sishiga ijobiy ta'sir ko'rsatdi.



O'sish sur'ati
115,8 %

Hajmi 12 500,0
mlrd. so'mga
oshdi

Xizmatlar hajmi
59 148,9
mlrd. so'm

Eng yuqori o'sish sur'atlari moliyaviy xizmatlar (156,4 %), kompyuter va maishiy tovarlarni ta'mirlash bo'yicha xizmatlari (131,4 %), sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar (112,5 %), shaxsiy xizmatlar (112,7 %), aloqa va axborotlashtirish xizmatlari (106,4 %) qayd etildi.

2019-yil yanvar-noyabr oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ko'rsatilgan bozor xizmatlarining o'sish sur'atlari, %



Yuqori bo'limgan o'sish ta'lim sohasidagi xizmatlar (102,9 %) shuningdek boshqa xizmatlarda (99,1 %) qayd etildi.

(dastlabki ma'lumotlar)

**2019-yil yanvar-noyabr oylarida iqtisodiy faoliyat turlari
bo'yicha ishlab chiqarilgan xizmatlarning asosiy ko'rsatkichlari**

	Hajmi, mldr. so'm	O'tgan yilga nisbatan o'sish sur'ati, %
Xizmatlar - jami	59 148,9	115,8
shu jumladan:		
Aloqa va axborotlashtirish xizmatlari	5 302,6	106,4
Moliyaviy xizmatlar	17 086,6	156,4
Transport xizmatlari	6 842,1	101,8
shu jumladan: avtotransport xizmatlari		100,9
Yashash va ovqatlanish xizmatlari	2 371,7	104,1
Savdo xizmatlari	13 991,5	104,1
Ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlar	2 547,3	104,0
Ta'lim sohasidagi xizmatlar	2 751,0	102,9
Sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar	1 108,2	112,5
Ijara xizmatlari	1 207,3	102,5
Kompyuter va maishiy tovarlarni ta'mirlash bo'yicha xizmatlar	334,2	131,4
Shaxsiy xizmatlar	697,7	112,7
Me'morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlar va tahlil sohasidagi xizmatlar	1 859,4	103,8
Boshqa xizmatlar	3 049,3	99,1

Sifatli o'zgarishlar va institutsional islohotlar chiqurlashishi bilan bir qatorda chakana savdo, umumiy ovqatlanish va maishiy xizmatlar kabi xizmatlar turlari asosan xususiy tadbirkorlikni faollashuvi hisobiga jadal rivojlanmoqda.

Davlatning iqtisodiy siyosatida axborot kommunikatsiya xizmatlari (mobil aloqa, Internet, raqamli televideniye va xokazo) kabi zamonaviy aloqa xizmat turlarini, shuningdek zamonaviy moliyaviy xizmat turlarini (bank xizmatlari, lizing, sug'urta, audit, konsalting va boshqalar) rivojlantirish bo'yicha masalalar alohida ahamiyatga ega.


2019-yil yanvar-noyabr oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ko'rsatilgan bozor xizmatlarining tuzilmasi, %



Dastlabki ma'lumotlarga ko'ra, 2019-yil yanvar-noyabr oylarida ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi 59 148,9 mlrd. so'mga teng bo'lib,, uning nominal hajmi 12 500,0 mlrd. so'mga oshdi.

Savdo xizmatlarning umumiy hajmida Yunusobod tumanining ulushi eng ahamiyatli bo'lib, 17,7 % ni tashkil etadi. Bu aholi real daromadlari boshqa tumanlardan ko'ra yuqoriq ekanligi bilan izohlanadi.

2019 yil yanvar-noyabr oylarida bozor xizmatlarining umumiylajmida tumanlarning ulushi, %




Shuningdek, eng katta ulush Mirobod (15,9 %), Shayxontohur (11,4 %), Yashnobod (10,2 %), Chilonzor (10,2 %) va Mirzo Ulugbek (9,5 %) tumanlarida qayd etilgan.

Xizmatlar sohasining eng past ko'rsatkichlari Yakkasaroy (6,1 %), Sirg'ali (5,8 %), Olmazor (5,4 %), Uchtepa (4,7 %), Bektemir (2,6 %) tumanlarida qayd etildi.

Eng yuqori o'sish sur'atlari moliyaviy xizmatlar (156,4 %), kompyuter va maishiy tovarlarni ta'mirlash bo'yicha xizmatlar (131,4 %), shaxsiy xizmatlar (112,7 %), sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar (112,5 %), aloqa va axborotlashtirish xizmatlari (106,4 %), yashash va ovqatlanish xizmatlari (104,1 %) da qayd etildi.

(dastlabki ma'lumotlar)

**2019-yil yanvar-noyabr oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha
ko'rsatilgan bozor xizmatlarining o'sish sur'atlari, %**



Eng past o'sish sur'atlari boshqa xizmatlar (99,1 %), transport xizmatlari (101,8 %), ta'lim sohasidagi xizmatlar (102,9 %), ijara xizmatlari (102,5 %), me'morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlar va tahlil sohasidagi xizmatlar (103,8 %), savdo xizmatlari (104,1 %) va ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlar (104,0 %) qayd etildi.

**2019-yil yanvar-noyabr oylarida ishlab chiqarilgan
xizmatlarning asosiy ko'rsatkichlari**

	Hajmi, mlrd. so'm	O'tgan yilga nisbatan o'sish sur'ati, %
Toshkent sh.	59 148,9	115,8
<i>tumanlar:</i>		
Bektemir	1 564,2	106,5
Mirzo Ulug'bek	5 622,2	100,6
Mirobod	9 408,0	124,0
Olmazor	3 198,2	116,5
Sirg'ali	3 443,6	109,5
Uchtepa	2 780,2	100,7
Chilonzor	6 024,5	126,3
Shayxontoxur	6 725,0	126,2
Yunusobod	10 448,6	115,7
Yakkasaroy	3 584,4	97,0
Yashnobod	6 019,0	127,8
Tumanlardan tashqari	331,0	106,2

Ichki talabni muvozanatli rag'batlantirish va mahalliy xizmat ishlab chiqaruvchilarni rivojlantirishga har tomonlama qo'llab-quvatlash bo'yicha ko'rيلайотган choralar xizmatlarga bo'lgan iste'mol talabining tuzilmasidagi o'zgarishlarni ta'minladi. Transport va mobil aloqa

(dastlabki ma'lumotlar)

xizmatlar, oilaviy tadbirlar va dam olishni tashkil qilish, internet xizmatlar, maishiy, sog'liqni saqlash va ta'lif xizmatlarga bo'lgan talab ortdi.

Joriy davrda ko'rsatilgan bozor xizmatlarining umumiyligi hajmida moliyaviy xizmatlar ulushi eng katta 28,9 % ni tashkil etadi.

Shu bilan birga, eng yuqori ulush savdo xizmatlari (23,6 %), transport xizmatlari (11,6 %), aloqa va axborotlashtirish xizmatlari (9,0 %), boshqa xizmatlar (5,1 %), ta'lif sohasidagi xizmatlar (4,7 %), ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlarda (4,3 %), yashash va ovqatlanish xizmatlarida (4,0 %), shuningdek me'morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlar va tahlil sohasidagi xizmatlar (3,1 %) kuzatildi.


2019-yil yanvar-noyabr oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ko'rsatilgan bozor xizmatlarining tuzilmasi, %



(dastlabki ma'lumotlar)

2019-yil yanvar-noyabr oylarida moliyaviy xizmatlar hajmi 17 086,6 mlrd. so'mga teng bo'lib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 6 562,1 mlrd. so'mga oshdi.

2019-yil yanvar-noyabr oylarida tumanlar kesimida moliyaviy xizmatlarning o'sish sur'atlari, %




2018-yil yanvar-noyabr oylariga nisbatan moliyaviy xizmatlarning o'sishi Shayxontohur (6,0 marta), Yunusobod (57,7 %), Uchtepa (42,3 %) va Yakkasaroy (34,6 %) tumanlarda kuzatilmogda.

Boshqa tumanlarga nisbatan shu davr uchun o'sish sur'atlari Mirzo Ulug'bek (106,1 %), Sirg'ali (106,1 %), Bektemir (108,6 %) sezilarli emas.

Moliyaviy xizmatlar umumiyligi sug'urta va nafaqa ta'minoti bo'yicha xizmatlardan tashqari moliyaviy xizmatlarning ulushi 91,4 % ni tashkil etadi.

2019-yil yanvar-noyabr oylarida moliyaviy xizmatlarning tuzilmasi, %



- Sug'urta va nafaqa ta'minoti bo'yicha xizmatlardan tashqari moliyaviy xizmatlar
- Sugu'rtalari ● Yordamchi moliyaviy faoliyat

Xizmat ko'rsatish sohasining rivojlanishi iqtisodiy qarorlar qabul qilish yo'lidan bormoqda. Shunday qilib savdoda qisqa vaqt ichida uning kichik va eng chakana tashkilotning kichik shakllari, kichik -chodirlar, do'konchalar, peshtaxtalar, yengil konstruksiyali va yarmarka turidagi pavilonlar soni ko'paymoqda.

Kichik savdogarlarning yordami bilan iste'mol bozorini to'ldirish muammosi tezda hal qilindi, xaridor esa buning natijasida mahsulotni tanlash imkoniyatiga ega bo'ldi.

Har bir mamlakatning iqtisodiy hayotida savdo xizmati muhim rol o'ynab, bunda, ishlab chiqarish va iste'mol o'rtaсидаги aloqani amalga

(dastlabki ma'lumotlar)

oshiradigan, tovarlar ishlab chiqarish hajmi va tuzilmasiga, shuningdek, ularning assortimenti va sifatini yaxshilashga sezilarli ta'sir ko'rsatadi.


2019-yil yanvar-noyabr oylarida ko'rsatilgan bozor xizmatlari umumiy hajmidagi savdo xizmatlarining ulushi 23,6 % ni tashkil etib, bu 13 991,5 mlrd. so'mga teng bo'ldi.

Ulgurji savdo xizmatlari (avtomobillar va mototsikllar savdosidan tashqari) umumiy savdo xizmatlari hajmining qariyb yarmini – 46,0 % ga to'g'ri keladi.

2019-yil yanvar-noyabr oylarida chakana savdo,(avtomobillar va mototsikllar savdosidan tashqari)xizmatlarining ulushi 45,5 % ga yetdi.

Avtomobillar va mototsikllarning ulgurji va chakana savdosi bo'yicha xizmatlar, jumladan, avtomobillar va mototsikllarni ta'mirlash bo'yicha xizmatlarni qo'shgan holda savdo xizmatlarining umumiy hajmidagi ulushi 8,5 % ni tashkil etdi.

2019-yil yanvar-noyabr oylari uchun savdo xizmatlari tuzilmasi, %



Transport xizmatlari hajmining oshishi yuk va yo'lovchi tashish xizmatlariga bo'lgan talabning ortishi bilan bog'liq bo'lib, bu o'z navbatida


(dastlabki ma'lumotlar)

turistik faoliyatning jadal rivojlanishi, savdo tarmog'inining kengayishi, qurilish bo'yicha loyihlarni yanada amalga oshishi, binolar va inshoatlarni, shuningdek transport-logistik infratuzilmanni rekontruksiya qilish bilan bog'liq.

Hozirgi kunda Toshkent shahrida transport infratuzilmasini rivojlantirish va mamlakatning barcha yo'nalishlar hamda transportning barcha turlari bilan yuk va yo'lovchilarni tashishdagi taminlash uchun katta imkoniyatlarga ega.

Transport xizmatlarining eng katta ulushi avtomobil transportida yuk va yo'lovchilarni tashish bo'yicha xizmatlarga to'g'ri keladi. Transportning ushbu turi boshqa transport turlari bilan taqqoslanganda uning moslashuvchanligi va ko'rsatilayotgan xizmatlarning nisbatan arzonligi sababli eng ko'p talabga ega hisoblanadi.

2019-yil yanvar-noyabr oylarida transport turlari bo'yicha transport xizmatlarining tuzilmasi, %



Transport xizmatlari umumiyo hajmida avtomobil transporti xizmatlarining ulushi 60,0 % ni tashkil etadi.

Bundan tashqari, saqlash va yordamchi transport xizmatlari 36,0 % tashkil qilgan bo'lsa, temir yo'l transporti orqali ko'rsatilgan xizmatlar – 2,0 %. kurerlik va pochta faoliyati ulushi esa 2,0 % ga yetdi.

(dastlabki ma'lumotlar)

Bundan tashqari, so'nggi yillarda bozorni zamonaviy axborot texnikasi va, aloqa vositalari bilan jadal to'ldirish yuz bermoqda.


Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari sohasidagi yuqori texnologiyali innovatsion ishlanmalardan foydalanish korxonalarda boshqaruv va texnologik jarayonlar samaradorligini oshirishga, iqtisodiyotning turli sohalarida tovarlar va xizmatlarning yangi bozorlarini yaratishga va mavjud bozorlarni kengaytirishga yordam beradi va bu oxir-oqibat aholi hayotining sifatini yaxshilanishiga olib keladi.

2019-yil yanvar-noyabr oylarida aloqa va axborotlashtirish xizmatlarining hajmi 5 302,6 mlrd. so'mga teng bo'ldi.

O'tgan yilning mos davriga nisbatan ushbu turdagи xizmatlarning o'sishi 6,4 % ga etdi. Ko'rsatilgan bozor xizmatlari umumiyligi hajmdagi ulushi 9,0 % ni tashkil etdi.

Aloqa va axborotlashtirish xizmatlari hajmida eng katta ulushni telekommunikatsiya xizmatlari (simli va mobil aloqa xizmatlari, Internet tarmog'i, yo'l doshlari aloqa xizmatlari va hokazo) egallab, uning ulushi 67,6 % ni tashkil etdi.

2019-yil yanvar-noyabr oylarida aloqa va axborotlashtirish xizmatlarining tuzilmasi, %



(dastlabki ma'lumotlar)

Joriy davrda aloqa va axborotlashtirish xizmatlari umumiylajmida nashriyotchilikning ulushi 8,6 %, kompyuter dasturlashtirish, maslahat berish xizmatlari va boshqa shu kabi xizmatlarning ulushi – 13,1 %, axborot sohasidagi xizmatlari - 4,8 %, boshqa xizmatlar – 5,9 % ni tashkil etadi.

Amaliyot shuni ko'rsatadiki, bilimlar va xizmatlar iqtisodiyotini shakllantirishning eng muhim sharti kadrlarni tayyorlash va qayta tayyorlashning rivojlangan tizimi hisoblanadi. Amalga oshirilayotgan islohotlar jarayonida mamlakatga turli ixtisoslashgan sohalarda yuqori darajadagi mutaxassislar kerak. Yuqori malakali kadrlar innovatsion iqtisodiyotning harakatlantiruvchi kuchiga aylanishi mumkun.



2019-yil yanvar-noyabr oylarida taʼlim sohasidagi xizmatlar hajmi 2 751,0 mlrd. soʼmga yetdi. Oʼtgan yilning mos davriga nisbatan 462,8 mlrd. soʼmga koʼpaydi.

2017-2021 yillarga moʼljallangan Harakatlar strategiyasining ustuvor yoʼnalishlaridan biri hisoblangan taʼlim va fan sohasini rivojlantirish quyidagilardan iborat:

uzluksiz taʼlim tizimini yanada takomillashtirish, sifatli taʼlim xizmatlari imkoniyatlarini oshirish, mehnat bozorining zamonaviy ehtiyojlariga mos yuqori malakali kadrlar tayyorlash siyosatini davom ettirish;


taʼlimning xalqaro standartlarini joriy etish va oʼqitish sifatini baholash, oily oʼquv muassasalariga qabul kvotalarini bosqichma-

(dastlabki ma'lumotlar)

bosqich oshirish, oily o'quv muassasalarining sifati va samaradorligini oshirish

ilmiy-tadqiqot va innovatsiya faoliyatini rag'batlantirish, ilmiy va innovatsiya yutuqlarini amaliyatga joriy etishning samarali mexanizmlarini yaratish, oliy talim muassasalari va ilmiy-tadqiqot institutlari huzurida ilmiy-eksperimental ixtisoslashtirilgan laboratoriylar, yuqori texnologiyalar markazlari va texnoparklarni tashkil etish.

2019-yil yanvar-noyabr oylarida tumanlar kesimida ta'lim sohasidagi ko'rsatilgan bozor xizmatlarning hajmi mlrd.so'm.




Talim sohasidagi ko'rsatilgan bozor xizmatlarning eng katta hajmi Olmazor tumanida qayd etildi. 2019-yil yanvar-noyabr oylarida 447,9 mlrd. so'mga yetdi.

Buning sababi shundaki oliy o'quv muassasalarining to'lov-kontrakt asosida xizmat ko'rsatuvchi eng ko'p qismi, shuningdek xorijiy oliy o'quv muassasalarining filiallarining bu yerda joylashganlidigadir.

Ta'lim sohasidagi xizmatlar bo'yicha yuqori o'sish sur'ati Chilonzor tumanida – 115,2 % ni tashkil etdi.

**2019-yil yanvar-noyabr oylarida tumanlar kesimida
ta'lif sohasidagi ko'rsatilgan bozor xizmatlarning hajmi va o'sish
sur'atlari, %**



Bundan tashqari, ta'lif sohasidagi xizmatlarning eng yuqori o'sish sur'atlari Olmazor (115,0 %), Yashnobod (113,0 %), tumanlarida qayd etildi.

2019-yil yanvar-noyabr oylarida eng past o'sish sur'ati Mirzo Ulug'bek tumanida – 88,0 % qayd etildi.


2018-yil yanvar-noyabr oylariga nisbatan yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarning o'sish sur'ati 104,1 % ni tashkil etdi, hajmi esa 423,1 mlrd. so'mga oshdi va 2 371,7 mlrd. so'mga yetdi.

Yashash va ovqatlanish xizmatlari



Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar hajmida oziq-ovqat mahsulotlari va ichimliklar bilan ta'minlash bo'yicha xizmatlarning ulushi 71,3 % bilan ustunlik qiladi.

2019-yil yanvar-noyabr oylarida yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarning tuzilmasi, %




- Oziq-ovqat va ichimliklar bilan ta'minlash bo'yicha xizmatlar
- Yashash xizmatlari

(dastlabki ma'lumotlar)

Joriy yilning oldingi davriga nisbatan yanvar-noyabr yashash bo'yicha xizmatlar hajmi 423,1 mlrd. so'mga oshdi, ulushi 4,0 % ni tashkil etdi. Ushbu turdag'i xizmatlarning o'sishiga dam olish uylari, bolalar lagerlari, kottejlar va boshqa dam olish maskanlari xizmatlariga bo'lgan aholining talabi o'z hissasini qo'shdi.

Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarning eng yuqori hajmi Yunusobod tumanida 685,1 mlrd. so'mni tashkil etdi, 2018-yil yanvar-noyabr oylariga nisbatan 117,9 mlrd. so'mga oshishi qayd etildi.

2019-yil yanvar-noyabr oylarida tumanlar kesimida yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarning hajmi va o'sish sur'atlari



Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarning eng kichik hajmi Bektemir tumanida – 20,0 mlrd. so'm qayd etilib, 5,0 mlrd. so'mga ko'paydi.


(dastlabki ma'lumotlar)

Yashash va ovqatlanish xizmatlarining eng yuqori o'sishi Shayxontohur tumanida qayd etildi (128,7%). Bundan tashqari, Bektemir (114,3%) va Uchtepa (111,8%) tumanlarida xizmatlar o'sishi kuzatildi.

Yakkasaroy tumanida o'sish sur'atlari nisbatan katta bo'limgan. Ular 95,2 foizni tashkil etadi.

2019-yil yanvar-noyabr oylarida sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar hajmi 1 108,2 mlrd. so'mga teng bo'ldi. O'tgan yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'ati 112,5% ni tashkil etadi.

Jami sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlarning hajmida tumanlar kesimidagi tumanlar ulushini taqqoslanishi, %



Toshkent shahrida sog'liqni saqlash tizimini isloh qilish chora-tadbirlarini amalga oshirish doirasida aholiga tibbiy va ijtimoiy-tibbiy xizmat ko'rsatish qulayligi hamda sifatini oshirish, aholining yuqori sifatli tibbiy xizmatlardan foydalanish imkoniyatlarini kengaytirish, ularga maxsus va yuqori texnologik tibbiy yordam ko'rsatishga yo'naltirilgan,

(dastlabki ma'lumotlar)

eng avvalo, uning dastlabki bo'g'inini, tez va shoshilinch tibbiy yordam ko'rsatish tizimini yanada isloh qilish aholiga tibbiy yordam ko'rsatishning zamонавиу тизимини шаклантirishda ijobiy natijalarga erishishga muvaffaq bo'lindi.

Tumanlar orasida sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar bo'yicha etakchi o'rinni Olmazor tumani egallaydi, joriy yilda o'tgan yilning mos davriga nisbatan hajmi 245,5 mlrd. so'mga ko'paydi. Uning sog'liqni saqlash sohasidagi ko'rsatilgan bozor xizmatlari umumiyligi hajmidagi ulushi 20,2 % ni tashkil etdi.

Shu bilan birga, nisbatan yuqori ulush Mirzo Ulug'bek (19,0 %) va Чилонзор (13,2 %) tumanlarida qayd etildi.

Joriy davrda sog'liqni saqlash sohasida ko'rsatilgan bozor xizmatlari umumiyligi hajmidagi xizmatlar ulushi nisbatan katta bo'limgan tumanlar Bektemir (0,7 %) va Sirg'ali (1,5 %) tumanlari hissasiga to'g'ri keladi.

Xizmat ko'rsatish sohasining rivojlanish darajasi aholining munosib hayot sifatini ta'minlash ko'rsatkichidir.

Mamlakatimizda post-industriyadan keyingi axborot jamiyatini shakllanar ekan, aholining ehtiyojlari tobora o'sib borishi va ularning xilma-xilligi kengayib borayotganligi sababli, xizmat ko'rsatish sohasining roli tobora ortib bormoqda.

Xizmatlar sohasi statistikasi bo'limi

71-230-88-15